



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: 3030-3079

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal

2026/5



www.innoworld.net
+998 33 5668868



ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 4, Issue 5
2026

Journal has been listed in different indexings

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:
www.innoworld.net

Uzbekistan-2026

Omon Matjon she'riyatida metafora va ramzlarning lingvokognitiv talqini

Annotatsiya: Ushbu maqolada Omon Matjon she'riyatida qo'llangan metafora va ramzlarning lingvokognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoirning badiiy tafakkuri, individual uslubi hamda milliy-madaniy dunyoqarashi til birliklari orqali namoyon bo'lishi yoritiladi. Metafora va ramzlarning matndagi semantik, konseptual hamda estetik vazifalari misollar asosida izohlanadi. Tadqiqot natijasida Omon Matjon poetik olamining o'ziga xos konseptual manzarasi va obrazlar tizimi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: ekspressiv, metafora, falsafiy tafakkuri, ramz, badiiy tafakkur, ma'no ko'chishi.

O'zbek leksikologiyasi va uslubshunosligida ancha mukammal ishlanishi lozim bo'lgan masalalardan biri metaforadir. Predmetlar orasidagi umumiy o'xshashlikka asoslangan holda ma'no ko'chirish metafora bo'lib, bunda asosiy (bosh) belgi narsa va hodisalar orasidagi qaysi bir tomon bilan o'xshashlikdir. Metafora ancha murakkab ma'no ko'chirish hodisasi hisoblanib, ayni zamonda ham tilshunoslar, ham adabiyotshunoslar diqqatini o'ziga jalb etib keladi. Bu ma'no ko'chirishga xususiyatlarini ochish, ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisalar tahlili nuqtayi nazaridan yondoshmalar, adabiyotshunoslar esa polisemantik so'zlardagi tasvirning turli vositalar (o'xshatish, sifatlash, majoz istiora)ni yuzaga keltiruvchi omillar deb biladilar. Har ikkala yo'nalishda ham maqsad bitta, u ham bo'lsa, so'zning ko'p ma'noligi va undagi uslubiy imkoniyatlarni o'rganishdir. So'zning ko'p ma'noliligini o'rganish, avvalo, leksik uslubiyat uchun muhim rol o'ynaydi. Chunki, bir so'zning o'zida turli xil ma'noning bo'lishi uchun og'zaki va yozma nutqda qo'llashda uslubiy bo'yog'iga, ma'nosiga e'tibor berishni talab qiladi. Shu boisdan ma'no ko'chirish ham sinonimiya, omonimiya va boshqa leksik vositalar singari hazil, mutoyiba, kulgi va turli so'z o'yinlarini yuzaga keltiradi. Bunday paytlarda so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosi to'qnashtiriladi, natijada kutilmagan yangi ma'no hosil bo'ladi.

So'zlarning ana shu nozik ma'no ottenkalari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida keng qo'llanadi. Leksema – tilning asosiy birligi. U bizni qurshab turgan olam unsurlarini nomlash uchun xizmat qiladi. Leksema faqat nomlash funksiyasi bilangina cheklanib qolmay, olam haqidagi bilimlarimizni kelajak avlodlarga yetkazish (kumulyativ vazifa), anglash (perseptiv), tinglovchiga ta'sir etish (ekspressiv) – vazifasini ham bajaradi. Bu esa leksemaning naqadar

ko'p qirrali hodisa ekanligini ko'rsatadi. Leksema va tushuncha o'zaro dialektik munosabatda bo'lsa ham, lekin har bir yangi tushuncha alohida so'z bilan ifodalana bermaydi. Agar har bir tushunchaga yangi so'z qo'llay berganimizda edi, til o'zining kommunikativ funksiyasini xiralashtirgan, yo'qotish darajasiga olib borgan bo'lar edi. Tilning xarakterli xususiyati shundaki, u xotirada saqlash mumkin bo'lgan sanoqli birliklar bilan cheksiz tushunchalarni ifodalash imkoniyatiga ega. Shuning uchun ham yangi paydo bo'lgan tushunchalar, asosan, u yoki bu tilning amal qiladigan modellari asosida mavjud birliklar yordamida ifodalanadi. So'zni ko'chma ma'noda qo'llash ham yangi tushunchani tilda mavjud birliklar yordamida ifodalashning bir yo'lidir. Metafora asosida nom ko'chishi – narsa, belgi yoki harakatga xos atamaning (so'zning) o'zaro o'xshashligi bo'lgan boshqa belgi, narsa, harakat haqidagi tushuncha uchun ham qo'llanishi, shu tushunchaning ham nomiga o'tishi (aylanishi)dir.¹⁷ Metafora asosida nom ko'chishi predmet, belgi, harakat, holatlarning keng ma'nodagi o'xshashligiga asoslanadi. Asos konkret, abstrakt bo'lishi mumkin. Metafora tuzilishiga ko'ra sodda va kengaygan, badiiy hamda lingvistik metaforalarga ajratiladi Lingvistik metafora ekspressiv bo'lmagan atama, badiiy metafora ekspressivdir. Ilmiy adabiyotlarda metaforani til va nutq hodisalari sifatida ikki turga ajratib ko'rsatadilar. Ko'chma ma'nolarni atroflicha tadqiq etgan M.Mirtojiyev metaforalarning denotat o'xshashligi belgisiga ko'ra uch guruhga bo'ladi:

1) oddiy metafora; 2) personifikatsiya (jonli obyekt jonsiz obyektни o'ziga nomdosh qilib olishi); 3) sinesteziya (sezgi orqali xis etiladigan ikkinchi obyektни nomdosh qilib olishi). Bunda oddiy metafora belgilarga qarab oddiy qiyoslash, personifikatsiya – jonlantirish orqali qiyoslash, sinesteziyada esa subyektiv holatda qiyoslash o'xshatish uchun asos bo'ladi.¹⁸

Metaforaga har doim funksional jihatdan qarash kerak. Bunda, bir tomondan, uning shoirga dilidagini ifodalashga, ikkinchi tomondan, she'rxonga ularni his qilishga qanchalik yordam berayotganini diqqat markaziga qo'yish muhim. Zero, metafora ijodiy faoliyat mahsuli ekan, xuddi badiiy asar yoki obraz kabi ikkala tomonni, ijodkor va o'quvchini birdek nazarda tutishni taqozo etadi. Demak, metaforaning she'riyatdagi o'rni va ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning she'riy matnda bajarayotgan funksiyalarini ko'zdan kechirish zarurdir.

Ma'lumki, inson miyasi doimiy harakatdagi, o'zgaruvchan va cheksiz yaratuvchan tizimdir. Unda har lahzada turli murakkab jarayonlar kechadi. Bu jarayonlar natijasida inson ongida narsalar va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik,

¹⁷ Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. –Т.: Фан, 1977, 66б.

¹⁸ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлиқнинг ифодаланиши. –Тошкент: Фан, 1983, 37б.

yaqinlik hamda bog'liqliklar yuzaga keladi. "Shu bois biror predmet yoki hodisaning nomi tez orada unga qaysidir jihatdan o'xshash boshqa narsa ma'nosida ham qo'llanilishi mumkin. Tilshunoslikda bunday hodisa ma'no ko'chishi deb yuritiladi va uning eng faol ko'rinishlaridan biri metaforadir"¹⁹.

Metafora faqat axborot yetkazish vositasi emas, balki estetik ta'sir kuchiga ega bo'lgan badiiy ifoda vositasidir. Ayniqsa, she'riyat va badiiy adabiyotda metafora inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari hamda nozik ruhiy holatlarni obrazli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. U matnga ta'sirchanlik, joziba va chuqur ma'no bag'ishlaydi. Shu ma'noda kognitiv metaforalar badiiy matnda muallifning dunyoqarashi, hislari va madaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim lingvistik vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda metafora gumanitar fanlarda eng ko'p o'rganilgan va dolzarbligini yo'qotmagan tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy tilshunoslikning turli yo'nalishlarida u nafaqat til hodisasi, balki inson tafakkuri bilan bevosita bog'liq kognitiv mexanizm sifatida talqin qilinmoqda. Metaforani o'rganish jarayonida bir tomondan inson fikrlash tizimining rivoji, ikkinchi tomondan esa ma'no hosil qilish va tushunchalarni anglash jarayonlari namoyon bo'ladi. Shu sababli metafora til, tafakkur va madaniyat kesishgan nuqtadagi muhim ilmiy hodisa sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida ham so'zlarning ko'p ma'noliligi va ko'chma ma'nolarini tadqiq etishga qaratilgan salmoqli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Bu borada taniqli tilshunos olim M.M. Mirtojiyevning qarashlari alohida ahamiyatga ega. Olim so'zning bir leksik ma'nosi asosida ikkinchi leksik ma'noning yuzaga kelishini "hosila" hodisasi sifatida izohlaydi. U hosila ma'noning shakllanishida metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik va tobelilik kabi besh asosiy usul mavjudligini qayd etadi. Shuningdek, mazkur usullar orasida metaforani eng faol va mahsuldor ma'no hosil qiluvchi vosita sifatida baholaydi²⁰.

So'z ma'nosining kengayishi va yangi semantik qirralar kasb etishini o'rganishda B. Mengliyevning ilmiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi. Olim leksemalarning semantik imkoniyatlarini tahlil qilar ekan, tilda yangi predmet yoki tushunchani ifodalash zarurati tug'ilganda har safar yangi so'z yaratish emas, balki mavjud leksemalarning ma'no imkoniyatlaridan foydalanish ustuvor ekanini ta'kidlaydi. Bu holatni u tilga xos tejam qonuniyati bilan izohlaydi. Shu asosda

¹⁹ Drujinin, Aleksandr Vasilyevich (2016), "Angliyskiy perfekt: ponyat i obyasnit", Inostranniye yaziki v shkole, 2: 49-53.

²⁰ Mirtojiyev, Miraziz (2010), O'zbek tili semasiologiyasi, Toshkent: Mumtoz so'z. 2010. – B. 119-127.

mavjud soʻzning bosh maʼnosiga nisbatan yuzaga kelgan yangi maʼnolarni "hosila semema" deb ataydi.

Ayniqsa, badiiy adabiyotda metafora va ramzlar muallifning ichki dunyosi, estetik qarashlari hamda milliy-madaniy tafakkurini ochib beruvchi muhim vosita hisoblanadi. Shu jihatdan oʻzbek sheʼriyatining yirik namoyandalaridan biri boʻlgan Omon Matjon ijodi alohida eʼtiborga loyiqdir. Uning sheʼrlarida qoʻllangan metafora va ramzlar nafaqat poetik tasvir vositasi, balki xalqona tafakkur, milliy ruhiyat, tarixiy xotira va insoniy kechinmalarning lisoniy ifodasi sifatida namoyon boʻladi.

Quyida Omon Matjon sheʼriyatidagi metafora va ramzlar lingvokognitiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Bunda obrazlarning yuzaga kelish mexanizmi, ularning konseptual asoslari hamda shoir tafakkuridagi individual va milliy xususiyatlar yoritiladi.

Omon Matjon sheʼriyati oʻzbek adabiyotida obrazlilik, falsafiy mushohada va milliy ruhning yorqin ifodasi bilan ajralib turadi. Shoir ijodida metafora va ramzlar muhim badiiy-estetik vosita sifatida qoʻllanib, ular orqali inson ruhiyati, tabiat, tarix, vatan, vaqt va hayot mazmuni kabi keng qamrovli tushunchalar ifodalanadi. Ushbu vositalarni lingvokognitiv jihatdan tahlil qilish shoir tafakkurining oʻziga xos tomonlarini, dunyoni idrok etish usulini hamda sheʼriy matnda yashiringan konseptual maʼnolarni ochib berishga xizmat qiladi.

Lingvokognitiv yondashuvga koʻra, metafora faqat badiiy bezak emas, balki inson tafakkurining tabiiy shaklidir. Inson mavhum tushunchalarni aniq obrazlar orqali anglaydi va ifodalaydi. Omon Matjon sheʼriyatida ham hayot, vaqt, muhabbat, dard, ozodlik singari mavhum tushunchalar koʻpincha tabiat hodisalari yoki kundalik predmetlar vositasida tasvirlanadi. Masalan, vaqtning oqar daryoga, umrning shamga, dardning ogʻir yukka qiyoslanishi kognitiv metaforalarning namunasidir. Bunday ifodalar oʻquvchi ongida aniq tasavvur uygʻotib, murakkab hissiy holatlarni sodda va taʼsirchan shaklda anglatadi.

Shoir ijodida tabiat obrazlari alohida oʻrin tutadi. Quyosh, oy, tun, tong, shamol, daraxt, daryo, togʻ kabi birliklar koʻpincha ramziy maʼnoda qoʻllanadi. Masalan, tong — yangilanish va umid, tun — iztirob yoki yolgʻizlik, shamol — erkinlik yoki oʻzgarish, daraxt — ildiz va davomiylik, daryo — umr oqimi timsoli sifatida namoyon boʻladi. Bu ramzlar oʻzbek xalqining milliy tafakkuri, qadriyatlari va tabiat bilan uygʻun hayot tarziga borib taqaladi. Shu sababli shoir ramzlari individual boʻlish bilan birga, umumxalq madaniy xotirasiga ham tayanadi.

Omon Matjon she'riyatida vatan va tarix mavzusi ham ramziy obrazlar orqali yoritiladi. Yer, tuproq, ona, qadimiy yo'llar, ajdodlar izi kabi tushunchalar orqali milliy o'zlik, tarixiy xotira va ma'naviy meros ifodalanadi. Masalan, tuproq obrazi oddiy moddiy unsur emas, balki ona zamin, avlodlar xotirasi va muqaddaslik timsoli sifatida talqin qilinadi. Bu esa shoirning Vatan konseptini hissiy va falsafiy qatlamlarda ochib berishiga xizmat qiladi.

Omon Matjon she'riyatida metafora va ramzlar shoir poetik tafakkurining asosiy tayanch unsurlaridan biridir. Uning she'rlarida obrazlar oddiy tasvir vositasi bo'lib qolmay, balki chuqur falsafiy, ruhiy va milliy mazmuni ifodalovchi konseptual birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Quyida "Seni yaxshi ko'raman"²¹ to'plamidan olingan ayrim namunalar asosida tahlillar keltiriladi.

Ko'z o'ngimda erir tuman

Qoyalarning to'shida.

Quyosh — oltin savat, turar

Cho'qqining boshida.

Ushbu parchada tabiat tasviri orqali kuchli metaforik tafakkur yuzaga chiqadi. "Tuman erir" birikmasida tuman moddiy jismdek tasvirlanib, uning yo'qolishi "erish" fe'li bilan ifodalanadi. Bu holat tabiat hodisasini inson tajribasiga yaqinlashtiradi. Eng muhim poetik birlik — "Quyosh oltin savat". Bu yerda quyosh dumaloq shakli, nuri va oltin rang jilosi asosida "savat" obrazi bilan qiyoslangan.

Lingvokognitiv jihatdan bunda TABIAT JISMLARI — MAISHIY BUYUM modeli ishlaydi. Shoir mavhum kosmik jismni inson ongiga tanish predmet orqali idrok ettiradi. "Cho'qqining boshida" ifodasi esa tog'ni tirik tanaga qiyoslash orqali personifikatsiyani yuzaga keltiradi. Natijada tabiat jonlanadi, harakatga kiradi va o'quvchi ko'z oldida dinamik manzara gavdalanadi.

Bu misralarda ramziy qatlam ham mavjud: tuman — noaniqlik, quyosh — haqiqat va nur, cho'qqi — yuksaklik timsolidir. Demak, she'r nafaqat manzara tasviri, balki zulmatdan ravshanlikka o'tish g'oyasini ham ifodalaydi.

O'zining qalbida biror uchqun bo'lmasa,

Ustozi quyosh bo'lsa hamki,

Undan yorug'lik chiqmog'i gumon.

Mazkur parchada inson ma'naviyati bilan bog'liq chuqur konseptual metafora qo'llangan. "Qalbdagi uchqun" iste'dod, intilish, ruhiy quvvat va ichki salohiyat ramzi sifatida kelgan. Uchqun kichik bo'lsa-da, katta olovning boshlanish

²¹ Omon Matjon. "Seni yaxshi ko'raman". —Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.1981. — 344 b.

nuqtasidir. Shu bois shoir inson kamoloti tashqi ta'limdan ko'ra ichki tayyorgarlikka bog'liq ekanini ta'kidlaydi.

"Ustozi quyosh" metaforasida quyosh bilim, murabbiylik va nur manbai sifatida ramzlashgan. Biroq qalbda uchqun bo'lmasa, tashqi yorug'lik samara bermaydi. Bu yerda BILIM — NUR, QALB — MAKON, ISTE'DOD — UCHQUN kabi konseptual modellarning uyg'unligi kuzatiladi.

Shoir shu tarzda tarbiya, ilm va shaxsiy rivojlanishning falsafiy formulasini yaratadi: inson o'z ichki energiyasini uyg'otmas ekan, tashqi imkoniyatlar foyda bermaydi. Bu fikr bugungi psixologik va pedagogik qarashlar bilan hamohangdir.

Odam — Dishon qal'a, orzusi — Ichon!

Oz yashab ko'p zahmat ko'rsa hamki u,

Ruhin qoldirmog'i mumkindir omon.

Ushbu misralar Ichan Kala va tashqi qal'a tushunchalari asosida qurilgan kuchli ramziy tizimga ega. Shoir insonni "Dishon qal'a", orzusini esa "Ichon" deb ataydi. Xiva me'moriy tizimidagi ichki va tashqi qal'a modeli inson psixologiyasiga ko'chirilgan.

Lingvokognitiv jihatdan bunda INSON — QAL'A, ORZU — ICHKI MUQADDAS MAKON modeli mavjud. Tashqi qal'a jismoniy mavjudlikni, ichki qal'a esa ruhiy ideal va ma'naviy yadroni anglatadi. Inson ko'p mashaqqat ko'rsa ham, agar orzusi saqlansa, uning ruhi omon qoladi.

Bu ramzlar milliy madaniy kod bilan bog'langan. Shoir mahalliy tarixiy-madaniy obyektini universal falsafiy timsolga aylantiradi. Shu jihatdan Omon Matjon poetikasida milliy obrazlarning umuminsaniy ma'noga ko'tarilishi kuzatiladi

Bunday metaforalar shoirning "Maqsudam"²² to'plamida ham talaygina uchraydi.

Belanchakda yotar koinot,

Chayqalmasa tinmasmi yig'i?!

Bizni chayqab turgan bu hayot

Kimlarningdir so'nggi qo'shig'i.

Samovot – bir juldur dasturxon,

Somon yo'li unda qand yuqi,

Tunga va'da etar oltin non

Yulduzlarning so'nggi qo'shig'i.

Bu parchada olam oddiy astronomik makon sifatida emas, insoniylashtirilgan tirik tizim sifatida tasvirlangan. "Belanchakda yotar koinot" metaforasida koinot chaqaloqqa qiyoslanadi. Belanchak esa harakat, tebranish,

²² Omon Matjon. "Maqsudam". – Toshkent: "Adabiyot". 2021. – 128 b.

hayotiy ritm timsolidir. Demak, borliq statik emas, doimiy siljish va o'zgarish holatidadir.

"Hayot bizni chayqab turadi" ifodasi inson umrining sinovlarga boyligini ko'rsatadi. Bu yerda tebranish — taqdir zarbalari, tajriba va o'sish ramzidir. Shoirning fikricha, osoyishtalik emas, aynan harakat hayotning belgisidir.

Ikkinchi banddagi "samovot – juldur dasturxon" metaforasi nihoyatda originaldir. Koinot kambag'al, yirtiq dasturxonga o'xshatiladi, Somon yo'li esa undagi "qand yuqi". Bu tasvir orqali shoir olamning ulug'vorligi bilan birga, uning soddaligini ham ko'rsatadi. Yulduzlar esa "oltin non" va'da qiluvchi umid manbalari sifatida talqin qilinadi.

Lingvokognitiv jihatdan bunda quyidagi model mavjud:

KOINOT — OILA MAKONI,
HAYOT — TEBRANISH,
YULDUZ — UMID/OZUQA.

Dunyoga sinchiklab tikilgan ko'zlar,
Mushkul bir holatki payqashga tushdi.
Qay tomonga boqmang, bari – yo'lsizlar,
Tolelar ayqash-u uyqashga tushdi.
Qor qora yog'moqda, yomg'ir za'faron,
Daryolar o'rnida oqmoqda armon.
Har podsho o'zicha chiqarib farmon,
Qolganlar bir-birin bulg'ashga tushdi.

Mazkur parcha shoirning ijtimoiy-falsafiy tafakkurini ochib beradi. Bu yerda tabiat tasvirlari real manzara emas, balki jamiyat holatining ramziy ko'rinishidir.

"Yo'lsizlar" obrazi maqsadsizlik va mafkuraviy bo'shliqni anglatadi. "Tolelar ayqash-u uyqash" bo'lishi esa inson qismatlarining chalkashib ketganini ifodalaydi.

Eng kuchli poetik vosita — "Qor qora yog'moqda". Odatda qor oppoq bo'ladi. Shoir tabiiy rangni buzish orqali axloqiy muhit buzilganini ko'rsatadi. "Yomg'ir za'faron", "daryolar o'rnida armon oqmoqda" satrlari ham tabiat qonunining izdan chiqishini emas, balki insoniy qadriyatlar yemirilishini anglatadi.

Bu yerda ramzlar tizimi quyidagicha:

- qora qor — poklikning ifloslanishi;
- armon daryosi — jamiyatning yig'ilgan iztirobi;
- farmon chiqaruvchi podsholar — avtoritar kuchlar;
- bir-birini bulg'ash — ma'naviy tanazzul.

Shoir tabiatni "ijtimoiy ko'zgu"ga aylantirgan.

Xulosa qilib aytganda, Omon Matjon she'riyatida metafora va ramzlar badiiy matnning shunchaki bezagi emas, balki shoir tafakkuri, ruhiy olami va milliy dunyoqarashini ifodalovchi muhim konseptual vositalardir. Ular orqali tabiat, inson, vaqt, muhabbat, sog'inch, vatan va jamiyat kabi tushunchalar yangi poetik mazmun kasb etadi. Shoir obrazlarni oddiy tasvir darajasida emas, balki chuqur falsafiy va emotsional ma'no yuklangan holda qo'llaydi.

Lingvokognitiv tahlil natijasida shuni ko'rish mumkinki, Omon Matjon metaforalari inson ongidagi assotsiativ tafakkur mahsuli bo'lib, ramzlari esa milliy-madaniy xotira bilan chambarchas bog'langan. Uning she'rlaridagi quyosh, daraxt, daryo, tun, tong, shamol, qal'a singari timsollar individual poetik uslub bilan birga umumxalq tajribasini ham aks ettiradi. Shu bois shoir she'riyati o'quvchini nafaqat estetik zavqqa, balki mushohada va ichki anglash jarayoniga ham chorlaydi.

Demak, Omon Matjon ijodidagi metafora va ramzlarni lingvokognitiv nuqtayi nazardan o'rganish uning badiiy mahoratini, obraz yaratish usullarini hamda she'riy tafakkurining o'ziga xos qirralarini yanada teranroq ochib berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. — Тошкент: Фан, 1983
2. Drujinin, Aleksandr Vasilyevich (2016), "Angliyskiy perfekt: ponyat i obyasnit", Inostranniye yaziki v shkole
3. Mirtojdiyev, Miraziz (2010), O'zbek tili semasiologiyasi, Toshkent: Mumtoz so'z. 2010. — B. 119-127.
4. Omon Matjon. "Seni yaxshi ko'raman". —Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.1981. — 344 b.
5. Omon Matjon. "Maqsudam". — Toshkent: "Adabiyot". 2021. — 128 b.
6. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. —Т.: Фан, 1977, 66б.